



**“SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDA HUKMDOR SHAXSIYATI  
BADIY TALQINI**

**Pardayeva Iroda Mamayunusovna**

*Samarqand davlat chet tillari instituti*

*Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası v.b. professori*

*E-mail: pardayevairoda74@mail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sab’ai sayyor dostonida hukmdor shaxsiyati va uning badiiy talqini masalasi tadqiq etiladi. Asarda Bahrom Go’r obrazi orqali ideal hukmdor konsepsiyasi, adolat, davlat boshqaruvi va ma’naviy kamolot g’oyalari badiiy-falsafiy ruhda yoritilgani tahlil qilinadi. Shuningdek, Bahrom syujetining Sharq epik an’alaridagi rivoji, uning Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy hamda Alisher Navoiy ijodidagi talqinlari qiyosiy jihatdan ko’rib chiqiladi. Maqolada hukmdor obrazi nafaqat siyosiy hokimiyat timsoli, balki adolat, ma’rifat va ma’naviy barkamollik mezonlarini mujassamlashtirgan ideal shaxs sifatida talqin etilgani ilmiy asosda yoritiladi.

**Kalit so’zlar:** Bahrom Go’r, hukmdor shaxsiyati, ideal hukmdor, adolat, davlat boshqaruvi.

Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni Sharq epik an’anasida keng tarqalgan Bahrom Go’r syujeti asosida yaratilgan bo’lib, unda hukmdor shaxsiyati, adolat, davlat boshqaruvi, inson kamoloti masalalari badiiy-falsafiy ruhda talqin etiladi. U “Xamsa” turkumining to’rtinchi dostoni sifatida yaratilgan ushbu asar kompozitsion qurilishi, syujet tizimi hamda obrazlar talqinidagi yangiliklari bilan Alisher Navoiy ijodida alohida o’rin tutadi. Dostonning markazida Bahrom va Dilorom haqidagi qoliplovchi hikoya turadi va shu hikoya asosida yetti mustaqil qissa rivojlanadi. Bunday kompozitsion usul Sharq adabiyotida qadimdan mavjud bo’lgan “hikoya ichida hikoya” an’anasiga borib taqaladi. Bahrom Go’r obrazi Sharq adabiyotida uzoq tarixiy va adabiy an’anaga ega. Uning ildizlari sasoniylar davri hukmdori Varaxran II shaxsiyati bilan bog’liq bo’lib, vaqt o’tishi bilan ushbu tarixiy shaxs haqida ko’plab afsona va rivoyatlar shakllangan. Bu rivoyatlar asosida Bahrom obrazi epik adabiyotda shon-shavkatli podsho, mohir ovchi hamda ishqiy sarguzasht qahramoni sifatida talqin etila boshlaydi. Mazkur syujet Sharq epik adabiyotida keng rivojlanib, Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Bahrom Go’r obrazining dastlabki badiiy talqini yaratiladi. Keyinchalik bu syujet Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” dostonida yangi badiiy mazmun bilan boyitilib, davlat boshqaruvi, adolatli hukmdor va kamolik g’oyalari bilan uyg’un holda talqin



qilinadi. Ushbu an'ana Amir Xusrav Dehlaviy "Hasht bihisht" dostonida ham davom ettirilib, Bahrom syujeti yangi qissa va epizodlar bilan boyitiladi. Alisher Navoiy o'z dostonini yaratishda ana shu boy adabiy an'analarni chuqur o'rganadi, ularga ijodiy yondashadi. Shoir salaflarining badiiy tajribasidan samarali foydalanish bilan birga, ularning ayrim kamchiliklarini ham tanqidiy baholaydi. Xususan, Nizomiy va Xusrav Dehlaviy asarlarida Bahrom obrazining haddan tashqari aysh-ishratga berilgan holda tasvirlanishi obrazning mantiqiy asoslariga putur etkazishini ko'rsatadi. Shu sababli Alisher Navoiy o'z dostonida Bahrom obrazini yangicha talqin etishga intiladi. Natijada Bahrom nafaqat ishqiy sarguzasht qahramoni, balki dono, adolatli va davlat boshqaruviga qodir hukmdor sifatida namoyon bo'ladi. Dostonning badiiy tizimida Bahrom obrazi hukmdor shaxsiyati talqinining markaziy timsoli hisoblanadi. Navoiy Bahrom obrazini yaratishda nafaqat epik an'analarga tayangan, balki uni yangi badiiy-falsafiy mazmun bilan boyitgan. Shoir talqinida Bahrom shaxsiyati davlat boshqaruvi, adolat va ma'naviy kamolot g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Shu jihatdan "Sab'ai sayyor" dostoni nafaqat ishqiy-sarguzasht asari, balki hukmdor shaxsiyati, adolatli boshqaruv va ideal hukmdor konsepsiyasini yorituvchi muhim badiiy-falsafiy asar sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur faslda "Sab'ai sayyor" dostonida Shoh Bahrom obrazining badiiy talqini, uning hukmdor sifatidagi fazilatlari hamda shoir tomonidan yaratilgan hukmdor shaxsiyati konsepsiyasining poetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Bahrom obrazining Sharq epik an'anasidagi talqinlari bilan Navoiy yaratgan badiiy talqin o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar ham ilmiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida ham "Xamsa" turkumiga kiruvchi boshqa dostonlarda bo'lgani kabi hukmdor madhiga bag'ishlangan alohida bob mavjud bo'lib, unda shoir o'z zamonasining hukmdori Sulton Husayn Boyqaro shaxsiyatini ulug'laydi. Bu madhiy qism nafaqat saroy poetikasining an'anaviy talabi, balki temuriylar davlatchiligi siyosiy-ma'naviy konsepsiyasini badiiy ifodalovchi muhim poetik unsur sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir hukmdor shaxsiyatini ulug'lash orqali o'z davrining ijtimoiy-siyosiy idealini, ya'ni, adolatli va ma'rifatparvar hukmdor timsolini badiiy obrazlar tizimi orqali talqin etadi. Dostonda hukmdor shaxsiyati, uning nasabiy kelib chiqishi, siyosiy qudrati hamda axloqiy fazilatlari badiiy-falsafiy ruhda tasvirlanadi. Bu talqinda hukmdor obrazi oddiy davlat boshlig'i darajasidan yuksalib, kosmik tartib, genealogik ulug'lik, ma'naviy kamolot va adolat tamoyillarini o'zida mujassam etgan ideal timsol sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan Alisher Navoiy hukmdor shaxsiyatini ulug'lash orqali temuriylar davri siyosiy mafkurasini, ayniqsa, ideal hukmdor haqidagi qarashlarni badiiy shaklda ifodalaydi. Shoir hukmdor ulug'ligini yuksak poetik



metaforalar orqali tasvirlaydi. Masalan, “*saltanat bahrining durri nobi*” va “*xilofat ma’danining la’li serobi*”[1;59] ” kabi obrazlar hukmdorni davlat saltanatining eng qimmatli javhari sifatida talqin qiladi. “*Ofarinish tojiga javhari zoti*”[1;59] kabi iboralar esa hukmdor shaxsiyatining yaratilish tartibidagi yuksak maqomini ifodalashga xizmat qiladi. Bunday kosmik-simvolik tasvirlar Sharq saroy poetikasiga xos bo‘lib, hukmdor shaxsiyatini koinot tartibi bilan uyg‘un holda ulug‘lash an‘anasiga borib taqaladi. Natijada hukmdor obrazi nafaqat siyosiy hokimiyat egasi, balki ilohiy tartibning yerdagi ifodasi sifatida talqin etiladi. Alisher Navoiy Sultan Husayn Boyqaro shaxsiyatini madh etish orqali temuriylar davlatchiligida hukmdor shaxsiyatiga yuklatilgan siyosiy, axloqiy va ma’naviy vazifalarni badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Bu talqin shoir ijodida hukmdor shaxsiyati konsepsiyasining shakllanishi va uning poetik ifodasi haqida muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Shoir hukmdorni madh etish jarayonini poetik ilhom manzarasi orqali tasvirlaydi. Bunda falak va sayyoralarga murojaat qilinishi hukmdor madhining kosmik miqyosda ifodalanishini anglatadi. Jumladan, quyidagi misralar ijodiy ilhom holatini ifodalaydi:

So‘z demakka qilur havo ko‘nglum,  
Kilk unidin tilar navo ko‘nglum[1;59].

Keyingi satrlarda Zuhal, Mushtariy, Bahrom, Zuhra, Atorid kabi sayyoralarga murojaat qilinishi hukmdor shaxsiyatining falak tartibi bilan bog‘langan holda ulug‘lanishini ko‘rsatadi. Bunday usul Sharq adabiyotidagi saroy madhlarining an‘anaviy poetik vositalaridan biridir. Hukmdorning nasabiy ulug‘ligi ham alohida ta’kidlanadi. Uning kelib chiqishi Chingiziy nasab bilan bog‘lanadi:

Anga Chingiz ulug‘ ato kelgan,  
Anosi xud Alonquvo kelgan[1;60].

Bu esa hukmdor nasabining qadimiy va ulug‘ ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Alonquvo obrazi mo‘g‘ul genealogik rivoyatlarida muqaddas ona timsoli sifatida tilga olinadi. Temuriylar siyosiy ideologiyasida hukmdor nasabining Chingiziy an‘anaga bog‘lanishi hokimiyatning tarixiy-siyosiy asosini mustahkamlovchi muhim omillardan bo‘lgan. Hukmdor shaxsiyatining yana bir muhim jihati uning kamtarligi va darveshona tabiatida namoyon bo‘ladi. Shoir hukmdor shon-shuhratga qaramay darveshlar oldida o‘zini past tutishini quyidagicha tasvirlaydi:

Shohlar qullug‘in ko‘rub marg‘ub,  
Anga darveshlik bo‘lub matlub[1;60].

Sharq siyosiy-axloqiy tafakkurida ideal hukmdor faqat qudratli emas, balki ruhiy jihatdan pok va kamtar bo‘lishi kerak degan qarash keng tarqalgan. Saroy madaniy hayoti bazm manzaralari orqali tasvirlanadi. Turk va fors



musiqa an'analari birgalikda ifodalanib, temuriylar saroyining ko'p madaniyatli muhiti ko'rsatiladi:

O'ngda turkinavoz urub doston,  
Ko'z solib har navoda Turkiston.  
So'l sori forsi surudu nag'am,  
Fitnai Fors, bal Iroqu Ajam[1;63].

Turk va fors madaniy an'alarining uyg'unlashuvi temuriylar davrida shakllangan yuksak saroy madaniyatining muhim belgilaridan biridir. Hukmdor faoliyatining eng muhim mezoni sifatida adolat alohida ta'kidlanadi. Tong saharda ibodat qilib, so'ng adolat taxtiga o'tirib xalq dardini tinglash hukmdor faoliyatining asosiy jihati sifatida tasvirlanadi:

Chun nekim, tengri amri bo'ldi tamom,  
Aylasang, adl taxti sori xiom[1;65].

Hukmdor shaxsiyati nasabiy ulug'lik, harbiy qudrat, ma'naviy kamtarlik, madaniy homiylik va adolat kabi fazilatlar uyg'unligida talqin etiladi. Mazkur sifatlar Sharq siyosiy-axloqiy tafakkurida ideal hukmdor konsepsiyasining asosiy tarkibiy unsurlarini tashkil etadi. Alisher Navoiy talqinida hukmdor shaxsiyati nafaqat siyosiy hokimiyat egasi, balki jamiyat barqarorligi va ma'naviy muvozanatini ta'minlovchi yetakchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli shoir qarashlarida hukmdorning eng oliy vazifasi mamlakatda adolatni qaror toptirish, xalq farovonligini ta'minlash va ijtimoiy muvozanatni saqlashdan iborat deb talqin qilinadi. Mazkur g'oya poetik yakun sifatida hukmdor saltanatining barqaror va abadiy bo'lishi haqidagi duoga ulanadi: *Xalladallohu mulhaku abado*[1;67].

Alisher Navoiy ijodida hukmdor shaxsiyati masalasi faqat tarixiy yoki epik obrazlar orqali emas, balki zamonaviy siyosiy voqelik bilan bog'liq holda talqin etilganini ko'rsatadi. Shoir o'zining badiiy va tarixiy asarlarida tarixiy shaxslar timsoli orqali o'z davridagi siyosiy jarayonlarga ishora qiladi. Xususan, Shoh Bahrom Go'r obrazini tasvirlar ekan, ushbu tarixiy timsol orqali temuriylar sulolasining hukmdori - Sultan Husayn Boyqaro shaxsiyati bilan bog'liq axloqiy va siyosiy saboqlarni ham ilgari suradi. Bu jihat, ayniqsa, "Sab'ai sayyor" hamda "Saddi Iskandariy" dostonlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Alisher Navoiyning "Sab'ai cayyor" dostonida Shoh Bahrom obrazi markaziy badiiy timsol sifatida talqin etiladi. Dostonning muqaddima qismidayoq shoir Bahrom obrazini tasvirlashdan oldin badiiy so'zning mohiyati, tarixiy rivoyatlar va ularning poetik talqini haqida muhim nazariy mulohazalarni ilgari suradi. Bu hol Alisher Navoiy epik qahramon obrazini yaratishda nafaqat tarixiy manbalarga, balki badiiy-falsafiy konsepsiyaga ham tayanganini ko'rsatadi. Muqaddima qismida shoir badiiy so'zning qiymatini ramziy tasvirlar orqali ifodalaydi. U so'z san'atini ma'naviy xazina ochuvchi



kuch sifatida talqin qiladi:

Soʻz tilismidin ulki ochti ganj,  
Buldi mezon tabʼi gavharsanj[1;67].

Alisher Navoiy nazarida shoir soʻz orqali yashirin maʼnolarni ochib beruvchi “gavharsanj”, yaʼni gavharni saralovchi ustaga oʻxshaydi. Shu sababli Bahrom haqidagi tarixiy rivoyatlar doston tarkibida oddiy tarixiy hikoya sifatida emas, balki badiiy va falsafiy talqin asosida ishlanadi. Shoh Bahrom obrazining shakllanishida nasab va shaxsiy fazilatlar masalasi ham alohida oʻrin tutadi. Navoiy nasabning ahamiyatini inkor qilmagan holda, insonning haqiqiy qadr-qimmatini uning shaxsiy fazilatlarini bilan belgilanadi degan gʻoyani ilgari suradi. Shu fikrni u diniy tarixdan olingan misol orqali asoslaydi:

Kim Halilulloh Ozar oʻgʻlidur,  
Butshikan koʻrki, butgar oʻgʻlidur[1;71].

Bu qiyos shoir shaxsning axloqiy kamoloti uning kelib chiqishidan ustun turishini taʼkidlaydi. Shu nazardan Bahrom obrazi ham genealogik asos bilan birga shaxsiy fazilatlar orqali shakllanadi. Doston davomida Bahrom hukmdorligi davri zulmatdan keyingi quyosh chiqishiga qiyoslanadi. Bu poetik tasvir orqali hukmdor faoliyati natijasida mamlakatda adolat va barqarorlik tiklangani ifodalanadi. Bahrom shaxsiyati aynan shu jihatlari bilan ideal hukmdor konsepsiyasiga yaqinlashadi. Shoir uning davlat boshqaruvida adolatni asosiy mezon sifatida qoʻllaganini alohida taʼkidlaydi:

Mulk bogʻin bahori adl bila,  
Suvorib joʻybori adl bila[1;72].

Adolat bahor suviga qiyoslanib, davlat hayotining yangilanishi va barqarorligi aynan adolat bilan bogʻlanadi. Alisher Navoiy talqinida hukmdorning asosiy vazifasi mamlakatda adolatni qaror toptirish va xalq farovonligini taʼminlashdan iboratdir. Shoh Bahrom obrazining yana bir muhim jihati uning siyosiy va harbiy faoliyatida namoyon boʻladi. Doston voqealarida Bahrom dushmanlarga qarshi kurashuvchi jasur sarkarda sifatida tasvirlanadi. Bu tasvir epik poetika anʼanalariga xos mubolagʻa va timsollar orqali ifodalanadi. Natijada Bahrom obrazi nafaqat ishqiy-sarguzasht qahramoni, balki davlatni himoya qiluvchi qudratli hukmdor sifatida namoyon boʻladi. Shuningdek, Navoiy tarixiy manbalarga tanqidiy yondashadi va tarixiy rivoyatlar oʻrtasidagi tafovutlarni ham eʼtibordan chetda qoldirmaydi. Shoir tarixiy voqealarni mutlaqo qayta yozmaydi, balki ularni badiiy talqin orqali yangi mazmun bilan boyitadi. Shu tariqa Bahrom obrazi tarixiy rivoyatlar, epik anʼana va shoirning badiiy-falsafiy qarashlari uygʻunligi natijasida shakllanadi. Shoh Bahrom obrazi koʻp qirrali timsol sifatida namoyon boʻladi. Unda nasabiy ulugʻlik, harbiy jasorat, siyosiy donishmandlik va adolatparvarlik kabi fazilatlar uygʻunlashadi. Navoiy bu obraz orqali ideal hukmdor konsepsiyasini



badiiy shaklda ifoda etadi hamda hukmdorning asosiy vazifasi jamiyatda adolat va barqarorlikni ta'minlash ekanini ko'rsatadi. Shoh Bahrom obrazi Navoiy ijodida ideal hukmdor timsolining muhim badiiy ifodalaridan biri sifatida namoyon bo'lib, u orqali shoir Sharq epik adabiyotidagi hukmdor obrazini yangi badiiy-falsafiy darajaga ko'taradi.

Alisher Navoiy Bahrom Go'r obrazini dastlab adolatli, ammo aysh-ishrat va ovga beriluvchan hukmdor sifatida tasvirlab, keyinchalik uni ideal hukmdor mezonlari bilan qiyosiy tahlil qiladi. Shu jarayonda Bahrom obrazi orqali zamonaviy hukmdor shaxsiyatiga nisbatan ma'lum badiiy-estetik baho beriladi. Natijada tarixiy qahramon timsoli zamonaviy siyosiy voqelik bilan uyg'unlashib, temuriylar davri hukmdorlik konsepsiyasini badiiy-falsafiy jihatdan yoritishga xizmat qiladi. Dostonda Bahrom haqidagi voqealar bayonidan avval berilgan tasvirlar shoirning ijodiy jarayoni, tarixiy rivoyatlar bilan ishlash usuli hamda badiiy talqin tamoyillarini yoritib beradi. Shoir ushbu o'rinda, avvalo, nazm yaratish jarayonining murakkabligi va mashaqqatli tabiatini ko'rsatadi. Bahrom haqidagi tarixiy rivoyatlarni tartibga solish, ularni poetik tizimga keltirish hamda yangi badiiy shaklda ifodalash katta tafakkuriy izlanishlarni talab qilgani ta'kidlanadi. Shu sababli ijodiy jarayon ruhiy toliqish, fikriy izlanish va ilhom izlash bilan bog'liq murakkab ruhiy holat sifatida tasvirlanadi. Qalamning sustlashuvi bilan bog'liq ifoda ham aynan shu ijodiy charchoqni anglatadi:

Baski har yon xirom etib edi chust,  
Qalamim po'yadin bo'lub edi sust[1;388].

Badiiy ijod jarayonining bunday talqini Alisher Navoiy poetikasida shoirlik faoliyatining chuqur ruhiy va intellektual tajriba sifatida tushunilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, shoir doston yaratish jarayonini qimmatbaho javohirlarni konlardan qazib olish bilan qiyoslaydi. Bu o'xshatish badiiy asar yaratilishi oson jarayon emasligi, balki izlanish, tafakkur va sabr-toqat talab qiladigan murakkab ijodiy mehnat ekanini anglatadi. Ijodiy toliqishdan keyingi holat tasvirida uyqu va tush motivi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Sharq adabiy an'alarida *tush ko'rish* ko'pincha ilhom manbai yoki ma'naviy ishora sifatida talqin qilinadi. Alisher Navoiy ham shu an'anaga tayanib, Bahrom shaxsiyatini tush orqali namoyon bo'ladigan ulug'vor hukmdor timsolida tasvirlaydi. Shohning ulug'vor taxtda namoyon bo'lishi, boshidagi saltanat toji va yuzidagi adolat nuri hukmdorlik timsolining asosiy belgilarini ifodalaydi:

Boshida toji saltanat zohir,  
Yuzida nuri ma'dalat bohir[1;390].

Toj hukmdorlik ramzi bo'lsa, yuzdagi adolat nuri ideal hukmdor konsepsiyasining axloqiy asosini bildiradi. Shu tariqa Bahrom obrazi nafaqat



tarixiy shaxs, balki adolatli hukmdor timsoli sifatida talqin qilinadi. Tasvir davomida Bahrom shoir bilan muloqot qiladi va uning ijodiy faoliyatini yuqori baholaydi. Bahromning ta'kidlashicha, avvalgi mualliflar voqealarni ko'pincha yuzaki bayon qilgan yoki ayrim tafsilotlarni tekshirmasdan tasvirlagan. Alisher Navoiy esa turli manbalarni izlab, voqealarning mohiyatini aniqlashga intilgan. Shu tariqa shoir tarixiy materialni badiiy talqin qilish zarurligini asoslaydi. Bu yondashuv Navoiy poetikasida tarixiy rivoyatlar bilan ishlashning muhim tamoyili sifatida namoyon bo'ladi. Doston bayonida yana bir muhim jihat - asarning turkiy tilda yaratilgani bilan bog'liq fikrning ilgari surilishidir. Avvalgi rivoyatlar asosan fors tilida yozilgani sababli ularni faqat shu tilni bilgan kishilar anglay olgan. Alisher Navoiy esa voqealarni turkiy tilda ifodalash orqali kengroq o'quvchilar doirasiga etkazgan. Bu hol shoirning turkiy adabiyot nufuzini oshirishga qaratilgan maqsadini ham ko'rsatadi. Bahrom tomonidan aytilgan pand-nasihatlar hukmdorlik masalasining axloqiy mohiyatini ochib beradi. Unda dunyoning o'tkinchiligi va hukmdor uchun eng muhim narsa yaxshi nom qoldirish ekani ta'kidlanadi:

Ki, jahon kimsaga vafo qilmas,  
Shohlig' tarkiga kiro qilmas[1;400].

Alisher Navoiy nazarida hukmdorning eng muhim fazilati - adolat va yaxshi nom qoldirishdir. Shu sababli hukmdorlikning asl mohiyati boylik yoki siyosiy qudratda emas, balki xalq manfaatiga xizmat qiladigan ezgu faoliyatda namoyon bo'ladi. Shoir dostonning asosiy voqealaridan keyin dunyo beqarorligi va zamonning bevafoqligi masalasi muhim falsafiy g'oya sifatida talqin qilinadi. Shoir zamon tabiatini inson hayoti uchun ishonchli tayanch bo'la olmaydigan muvaqqat hodisa sifatida izohlaydi. Bu qarash Sharq falsafiy-adabiy tafakkurida keng tarqalgan "dahr bevafoqligi" g'oyasi bilan uyg'unlashadi. Alisher Navoiy nazarida jahon inson uchun doimiy manzil emas, balki vaqtinchalik maskan bo'lib, shu sababli unga ortiqcha e'tibor qaratish ma'naviy xatoga olib kelishi mumkin. Bu fikr quyidagi satrlarda ifodalangan:

Ey ko'ngul, boqmag'il jahon ishiga,  
Kim, jahon qilmadi vafo kishiga[1;382].

Alisher Navoiy ushbu g'oyani yanada chuqurlashtirish uchun dunyoni mustahkam asosga ega bo'lmagan makon sifatida talqin qiladi. Unda "*yerning suv ichidagi kesakka*" qiyoslanishi orqali dunyo tartibining beqarorligi va uning poydevori mustahkam emasligi ko'rsatiladi. Bu tashbeh jahonning vaqtinchalik tabiatini ochib beradi va insonning bu dunyoga ortiqcha ishonch bildirmasligi lozimligini anglatadi:

Bir ulug'roq kesak erur bu jahon,  
Ki, erur ko'pragi suv ichra nihon[1;392].

Bu qarashlar tarixiy hukmdorlar taqdiri badiiy talqini orqali yanada



kuchaytiriladi. Alisher Navoiy qadimgi Eron tarixida mashhur bo'lgan podshohlarning nomini sanab o'tib, eng qudratli saltanatlar hamma vaqt hukmiga bo'ysunishini ko'rsatadi. Bu orqali hukmdorlik qudrati ham abadiy emasligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, Bahrom Go'r obrazi ushbu falsafiy g'oyaning badiiy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Uning ulkan saltanati va hashamatli hayoti ham oxir-oqibat zamon hukmiga bo'ysunganini shoir quyidagicha umumlashtiradi:

Muncha kominki, berdi charxi kabud,  
Uyla bir damda ayladi nobud[1;382].

Alisher Navoiy dunyo o'tkinchiligi, saltanatning beqarorligi va inson hayotining fanoligi haqidagi qarashlarini badiiy umumlashma darajasiga olib chiqadi. Tarixiy hukmdorlar taqdiri orqali u insonni g'aflatdan ogohlantiradi hamda donolik va ma'naviy hushyorlik sari chorlaydi. Ushbu falsafiy talqin dostonning siyosiy-axloqiy g'oyalarini ifodalovchi muhim konseptual xulosaga aylanadi. Shoir syujet yakunida tushdan uyg'onadi va ko'rgan holatini ruhiy ilhom sifatida qabul qiladi. Bu voqea shoirga Bahrom haqidagi dostonni yaratishda, ijod etishda ma'naviy turtki bergan deb talqin qilinadi. Shu tariqa Bahrom shaxsiyati tarixiy qahramon sifatida emas, balki adolat, donishmandlik va hukmdorlik fazilatlarini mujassam etgan ideal timsol sifatida namoyon bo'ladi. Dostonning keyingi boblarida ilgari surilgan g'oyalar Alisher Navoiyning boshqa asarlaridagi qarashlar bilan hamohang tarzda davom ettiriladi. Jumladan, "Mahbub ul-qulub"da ham, "Hayrat ul-abror" asarida ham hukmdorning asosiy vazifasi adolatni qaror toptirish va xalq farovonligini ta'minlash ekani ta'kidlanadi. Shu bois Bahrom timsoli orqali hukmdorlikning haqiqiy mohiyati - adolat, saxovat va xalqparvarlik kabi fazilatlar bilan bog'lanadi. Alisher Navoiy tarixiy rivoyatlarni badiiy talqin asosida qayta ishlab, Bahrom obrazini ideal hukmdor konsepsiyasining badiiy timsoliga aylantiradi. Shu bois doston voqealari rivoji davomida shoirning badiiy-falsafiy qarashlari tobora ravshanlashib boradi va hukmdor shaxsiyati masalasi adolat, ma'naviy kamolot hamda xalq manfaatiga xizmat qilish g'oyalari bilan uyg'un holda umumlashtiriladi. Doston yakuniga yaqinlashgan sari ilgari surilgan g'oyalar yanada aniqroq badiiy mazmun kasb etadi. Xususan, "Sab'ai sayyor" asarining so'nggi boblarida Bahrom Go'rning fazilatlarini bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari ham mufassal yoritiladi. Muallif aynan shu qarama-qarshi jihatlar orqali Bahrom timsolini yanada murakkab va hayotiy obraz sifatida talqin qiladi hamda uning qiyofasi orqali Sulton Husayn Boyqaro shaxsiyatiga ham ma'lum darajada ishora qiladi. Bahromning so'nggi manzili - uning ko'zdan g'oyib bo'lishi, kishi bormas maskanda g'arq bo'lishi kabi badiiy tafsilotlar chuqur ramziy ma'noga ega bo'lib, hukmdor taqdirining o'tkinchiligi, dunyoviy saltanatning barqaror emasligi hamda inson umrining



foniyligi haqidagi falsafiy xulosalarni ifodalaydi. Shu tariqa Alisher Navoiy nafaqat tarixiy obraz yaratadi, balki ushbu obraz vositasida o'z zamonasining hukmdoriga axloqiy-siyosiy xulosalarni etkazishga intiladi. Natijada Bahrom timsoli orqali hukmdor shaxsiyati, adolat va ma'naviy mas'uliyat haqidagi qarashlar badiiy umumlashma darajasiga ko'tariladi. Mazkur yondashuv Navoiyning tarixiy asarlarida ham davom etadi. Jumladan, "Tarixi muluki Ajam" asarida ham qadimgi fors podshohlari haqida berilgan mulohazalar faqat tarixiy voqealarni qayd etish bilan cheklanmaydi. Aksincha, ularning faoliyati orqali zamonaviy hukmdorlar uchun ibratli xulosalar ilgari suriladi. Bu jihatdan Bahrom Go'r va boshqa qadimgi shohlar haqidagi fikrlar, avvalo, Sulton Husayn Boyqaro hamda temuriy hukmdorlar faoliyatiga qaratilgan ma'naviy-siyosiy ishoralar sifatida talqin etilishi mumkin. Alisher Navoiy tarixiy shohlar timsoli orqali zamonaviy hukmdorlar uchun ibratli saboqlar berishni maqsad qiladi. U badiiy tarixni yaratish jarayonida o'z davrining siyosiy va axloqiy holatini nazarda tutgan holda, hukmdorlik faoliyatining asosiy mezonlari sifatida adolat, ma'naviy poklik va xalq manfaatiga xizmat qilish g'oyalarini ilgari suradi. Natijada tarixiy obrazlar orqali ifodalangan ushbu fikrlar Alisher Navoiyning siyosiy-axloqiy qarashlarini yorituvchi muhim badiiy-falsafiy xulosaga aylanadi. Tadqiqotchilar ham bu holatni alohida ta'kidlaydilar. Masalan, A.Qayumov shunday yozadi: "Navoiy tarixiy shohlar obrazini yaratishda ularga faqat o'tmish voqealari qahramoni sifatida emas, balki zamonasining siyosiy-axloqiy muammolarini yorituvchi timsol sifatida yondashadi. Shuning uchun ham ularning faoliyati orqali zamonaviy hukmdorlarga bevosita ishora qiladi"[6;32]. Sharqshunos Ye.Ye.Bertels ham Navoiy asarlarining bunday xususiyatiga e'tibor qaratib, "Tarixi muluki Ajam" nafaqat tarixiy voqealar to'plami, balki siyosiy-axloqiy traktat bo'lib, unda shoir o'z zamonasining hukmdorlariga badiiy usulda saboq bermoqchi bo'ladi[2;214] deya qayd etadi. Demak, Navoiy tarixiy obrazlarni tasvirlar ekan, ular timsolida o'tmish bilan zamon orasida badiiy-estetik ko'prik yaratadi va shu orqali temuriylar davri hukmdorlariga ogohlik, mas'uliyat va adolat mezonlarini eslatib turuvchi ibratli pand-nasihatni ifoda etadi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro shaxsiyatining Bahrom Go'r bilan qiyoslanishi Navoiy uchun oddiy tarixiy parallel emas, balki badiiy-ma'naviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu orqali muallif shohlik mas'uliyatining naqadar yuksak va murakkab ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, podshoh davlat va jamiyat taqdirini belgilovchi eng yuksak mas'ul shaxs sifatida o'z vaqtini bekorchi mashg'ulotlarga emas, balki xalq farovonligi va adolatli boshqaruvga bag'ishlashi lozim[4;63]. Shohning mayl, ov yoki shaxsiy lazzatlarga ortiqcha berilib ketishi esa nafaqat uning shaxsiy hayotida, balki butun mamlakat taqdirida ham halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ko'rsatiladi. Muallif shu tarzda hukmdorning ma'naviy



pokligi, irodaviy mustahkamligi va siyosiy hushyorligi davlat barqarorligining muhim omili ekanini yoritishga intiladi. “Sab’ai sayyor”da tasvirlangan Bahrom Go’r tashqi jihatdan adolatli va saxiy shoh sifatida namoyon bo’ladi. Biroq u sharobga va ovga bo’lgan haddan tashqari mayli orqali o’z mas’uliyatini unutadi. Alisher Navoiy Bahromning hukmdorlik vazifasini emas, balki shaxsiy lazzat va shohona xushomadlarni afzal ko’rishini qoralaydi. Alisher Navoiy hukmdorning bir qarashda begunoh bo’lib tuyuladigan xatosi – sharob va kayf-safoga beriluvini mamlakat uchun halokat omili sifatida ko’rsatadi. Shu bilan birga dostonida Bahromning ovga qattiq berilishi va siyosiy hushyorligini yo’qotishi, mamlakatning dushmanlar qo’liga o’tishi bilan yakun topadi. Bunday dramatik oxirlik Alisher Navoiyning nazarida hukmdorning ma’naviy sustkashligi va befarqligi oqibatida yuz beradigan halokatdir. Shoir dostonida Bahrom Go’r qismatini tasvirlar ekan, voqealarni faqat tarixiy rivoyatlar doirasida cheklab qo’ymaydi, balki ularni o’z davrining siyosiy muhitiga ham bog’laydi. Shu tariqa Bahrom haqidagi hikoyalar orqali muallif temuriylar davri voqeliklariga murojaat qiladi va Sulton Husayn Boyqaro nomini eslatib o’tadi. Dastlab Bahrom shaxsiyati va uning hukmdorlik faoliyati haqida so’z yuritilgan bo’lsa, keyingi o’rinlarda voqealar kutilmagan tarzda shoir yashab turgan davrga - Xurosondagi siyosiy hayot manzaralariga ulanadi. Bu orqali Alisher Navoiy tarixiy obrazni zamonaviy hukmdor shaxsiyati bilan qiyoslash imkonini yaratadi. Asarda bu holat quyidagi satrlarda o’z ifodasini topadi:

Abulg’ozi Sulton Husayn Bahodirxon  
xalladallohu mulkahu...

Mazkur murojaat orqali shoir Bahrom timsoli bilan zamonaviy hukmdor shaxsiyatini badiiy jihatdan bog’laydi. Natijada doston voqealari nafaqat tarixiy rivoyatlarni bayon qilish vazifasini bajaradi, balki temuriylar davri hukmdorlik konsepsiyasini ham badiiy talqin etishga xizmat qiladi. Bu esa Alisher Navoiy poetikasiga xos bo’lgan muhim tamoyil - tarixiy obraz orqali zamonaviy siyosiy va axloqiy masalalarni yoritish usulini namoyon etadi. Bu tarixiy havola Alisher Navoiyning asardagi allegoriyaviy timsollarni zamonaviy hukmdorlarga qarata ishlatishini ko’rsatadi. Ya’ni u Bahrom obrazi orqali Sulton Husayn Boyqaroni ogohlantirmoqchi bo’ladi. Dostonning oxirida esa Alisher Navoiy Bahrom Go’rni to’g’ridan to’g’ri Sulton Husayn Boyqaro bilan qiyos qiladi va uning hukmdorligidagi xatolardan xulosa chiqarishni taklif etadi.

Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarida ham Bahrom Go’r va boshqa podshohlar haqidagi fikrlar o’tkir tanqidiy ruhda yozilgan bo’lib, bu fikrlar, birinchi navbatda, Sulton Husayn Boyqaro va uning vorislariga qaratilgani ayon bo’ladi. U podshohlar obrazi orqali hokimiyat mas’uliyati,



adolat mezonlari, xalq bilan munosabat haqida o'zi orzu qilgan davlat rahbarining ideal timsolini yaratadi. Alisher Navoiy bu borada Zahhok bin Marodis, Doro bin Dorob va Hurmuz bin Anushirvon kabi tarixiy shohlar haqida ham ibratli qissalarni keltiradi[5;253]. Masalan, Zahhok obrazi – zolimlik, manfaatparastlik va nafs illati ifodasi sifatida tasvirlanadi. Shoir “Xamsa” dostonlari orqali o'z zamonasi hukmdorlarini adolatli, hakim va xalqparvar bo'lishga chaqirgan. Alisher Navoiy hukmdorlarning shaxsiy nuqsonlari, ayniqsa, nafsiy maylga, g'ururga, kibrga, kayf-safoga beriluvi davlat uchun qanday oqibatlariga olib kelishini real obrazlar orqali namoyon etadi. Uning ijodida Bahrom Go'r timsoli Sulton Husayn Boyqaro uchun ogohlilik ramzi sifatida xizmat qiladi. Shoir podshohlarning xatolarini fosh etish orqali ularni yaxshilik sari yetaklaydigan badiiy va ma'rifiy risolalarni yaratadi.

*Alisher Navoiyning Husayn Boyqaroga munosabati ikki qirradan iborat: ilk maqtov – uning ilmga e'tibori va salohiyatiga bog'liq; ikkinchi qirra – tanqid, uning shaxsiy hayotidagi zaif tomonlari va ehtiyotkorligini eslatish orqali amalga oshiriladi. Tarixchilarning fikriga ko'ra, podshohlik oxirida Sulton Husayn davlat ishlaridan ozroq uzoqlashib, saroydagi ma'raka va ishratlarga ko'proq e'tibor bera boshlagan. Bu holat mamlakatda siyosiy beqarorlikka sabab bo'lgan: “Husayn Bahodirxonning oxirgi yillarida har kun may va tarona bo'lar edi. Uning olishida ilm qolib, kayf ustuvor bo'ldi”[3;45]. Ana shu holat, Alisher Navoiyning Shoh Bahrom obrazi orqali shohni ogohlantirishiga zamin yaratadi. Xususan:*

- Alisher Navoiy Shoh Bahrom obrazini yaratishda real hukmdor – Sulton Husayn Boyqaroning shaxsiy hayotidan, xususan, uning mayga moyilligi, odillikka intilishi, ilmparastligi va zaifliklaridan bevosita ilhom olgan.
- Shoh Bahrom – nafaqat afsonaviy shaxs, balki tanqidiy maskanlashtirilgan, badiiy yupqa parda ostidagi Sulton Husayn Boyqaroning yuzidir.
- Bu obraz Alisher Navoiyning iffatli tanqid, yuksak murabbiylik va badiiy yetuklik qobiliyatini ko'rsatadi.

Xullas, tarixda musulmon davlatlarida shariat qoidalarida hozirgi konstitutsiya singari asosiy qonuniy-huquqiy hujjat sanalgan va barcha amallar shariat qoidalariga muvofiq bajarilgan. Tarixiy haqiqatdan ko'rinib turibdiki, Sulton Husayn Boyqaro hayotda ham adolatparvar podshoh bo'lgan. Garchi, bir voqeaga ko'ra, o'g'illaridan birining hayotini saqlab qolish o'z qo'lida bo'lsa-da, u adolatga, haqiqatga qarshi borib ish tutmaydi, rahm-shafqat qilmaydi. Zero, Alisher Navoiy aytganidek, “Yomonlarga lutf-karam, yaxshilarga mujibi zarar va alam”dir. Sulton Husayn Boyqaro buni yaxshi anglardi va buning isboti sifatida o'g'lini qonun (adolat) oldida raiyat bilan



teng ko‘rib, jazolashga ruxsat berdi. Xuroson shohining bu amali esa Navoiy ishlab chiqqan adolat me‘yorlariga to‘g‘ri keladi: zulmga qarshi zulm bo‘lishi shart, ya‘ni zolimga rahm qilib bo‘lmaydi. Zolimga rahm qilish – mazlumga jabr qilish, demakdir. Bu esa Alisher Navoiy tasviridagi ideal qahramon (odil shoh)ning hayotiy ekanligini ko‘rsatib beradi, isbotlaydi. Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaroni “Shohi G‘oziy” nomi ostida ramziy ma‘nodagi shoh sifatida ko‘rsatib, undagi fazilatlarni – ilmga muhabbat, san‘at va adabiyotga e‘tibor, adolatga intilish, xalq manfaatini ko‘zlash kabi xususiyatlarni alohida ulug‘laydi. Shu bilan birga Alisher Navoiy “Sab‘ai sayyor”da Bahrom shoh obrazi orqali Sulton Husaynning zaif jihatlarini muloyim, ramziy va siyosiy ehtiyotkorlik bilan tanqid qiladi. U Bahromning mayxo‘rligi va nafsga berilganligi oqibatidagi halokatni davlatchilik nazaridan dramatik ogohlantiruv sifatida ko‘rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 10-жилд. – Тошкент: Фан, 1992. – 59 б
2. Бертельс Е. Е. Наваи и его современники. – Москва: Наука, 1965. – S. 214.
3. Mirxond M. Ravzat us-safo.
4. Пардаева И. Навоий ва тарих ҳикмати. Монография. Тошкент. “Наврўз” нашриёти, 2020. – В.84.
5. Pardayeva I. “Tarixi muluki ajam” masnaviysi hakimona tafakkur mahsuli. NamDU ilmiy axborotnomasi. Ilmiy axborotlari. Ilmiy-nazariy jurnali. – Namangan, 2023. – №2. – Б.252-257.
6. Қаяумов А. Алишер Навоий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – В. 32.